



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 124 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	



KASBIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING RAQAMLI KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA BAHOLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna

Professional ta'limni rivojlantirish instituti 2-bosqich mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada kasbiy ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning nazariy-metodologik asoslari chuqur o'rganildi. Ta'lim jarayonida texnik ko'nikmalarni fuqarolik madaniyati bilan integratsiya qilishga qaratilgan tarkibiy-funksional pedagogik modelning maqsadli, konseptual, mazmunli-texnologik, tashkiliy-pedagogik va diagnostik-natijaviy komponentlari ilmiy jihatdan asoslangan. O'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning metodologik negizi sifatida kompetensiyaviy, integrativ va raqamli-texnologik yondashuvlarning o'zaro bog'liqligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, raqamli kompetensiya, baholash, innovatsion yondashuv, ta'lim transformatsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik model, raqamli didaktika, fuqarolik madaniyati.

Abstract: The article thoroughly examines the theoretical and methodological foundations of forming and assessing students' digital competence in the context of digital transformation of vocational education. A scientifically grounded structural-functional pedagogical model is proposed, aimed at integrating technical skills with civic culture. This model includes target, conceptual, content-technological, organizational-pedagogical, and diagnostic-resultative components. As the methodological basis for shaping and assessing digital competence, the interrelation of competency-based, integrative, and digital-technological approaches has been identified.

Key words: vocational education, digital competence, assessment, innovative approach, educational transformation, competency-based approach, pedagogical model, digital didactics, civic culture.

Аннотация: В статье глубоко изучены теоретико-методологические основы формирования и оценки цифровой компетентности учащихся в условиях цифровой трансформации профессионального образования. Научно обоснована структурно-функциональная педагогическая модель, направленная на интеграцию технических навыков с гражданской культурой, включающая целевой, концептуальный, содержательно-технологический, организационно-педагогический и диагностико-результативный компоненты. В качестве методологической основы формирования и оценки цифровой компетентности учащихся выявлена взаимосвязь компетентностного, интегративного и цифрово-технологического подходов.

Ключевые слова: профессиональное образование, цифровая компетентность, оценка, инновационный подход, трансформация образования, компетентностный подход, педагогическая модель, цифровая дидактика, гражданская культура.

KIRISH

Jahon miqyosida ta'lim tizimida kuzatilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari kasbiy ta'lim oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Chunki bugungi globallashuv sharoitida inson kapitali raqobatbardoshlikning eng muhim omiliga aylanib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida esa raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash nafaqat zamonaviy texnologiyalarni mukammal bilishni, balki ulardan samarali, mas'uliyatli va ijodiy foydalana olishni taqozo etadi. Bu esa kasbiy ta'lim tizimida nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki keng qamrovli raqamli kompetensiyani shakllantirishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

O'zbekistonda ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi (PF–6079, 2020-yil 5-oktabr) hamda kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi ushbu sohada tub islohotlar zaruratini belgilab berdi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev bu borada shunday ta'kidlagan edi: "Raqamli bilim va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallamagan har qanday soha, har qanday iqtisodiyot



sohasida taraqqiyot bo'lishi mumkin emas." Ushbu fikr kasbiy ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish va uni innovatsion rivojlantirishning muhimligini yaqqol ko'rsatib bermoqda.¹

Mazkur jarayon an'anaviy ta'lim paradigmasidan voz kechib, o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish, uni xolis va ilmiy asoslangan mezonlar orqali baholashga qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Shu boisdan ham kasbiy ta'lim tizimida raqamli didaktika elementlari, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda.

Mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, kasbiy ta'lim amaliyoti va zamonaviy mehnat bozori talablaridagi tafovutni bartaraf etish zaruratidan kelib chiqsa, ikkinchi tomondan, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha mavjud pedagogik yondashuvlarni tizimlashtirish hamda ularni baholashning shaffof va adolatli mexanizmlarini ishlab chiqish ehtiyoji bilan izohlanadi. Bu masala nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham dolzarb bo'lib, mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash va yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholash jarayonlarini chuqur o'rganishga qaratildi. Bunda nazariy-tahliliy, qiyosiy-pedagogik va empirik metodlardan foydalanildi. Nazariy-tahliliy yondashuv orqali mavjud ilmiy manbalar, xalqaro tajribalar hamda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida konseptual qarashlar ishlab chiqildi. Qiyosiy-pedagogik metod yordamida xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari solishtirilib, raqamli kompetensiyani shakllantirish va baholash bo'yicha turli yondashuvlar tahlil qilindi. Empirik metodlar sifatida so'rovnoma, kuzatuv va tajriba-sinov ishlari olib borilib, o'quvchilarning raqamli kompetensiyasi shakllanishining amaliy darajasi aniqlashtirildi. Shuningdek, model yaratish metodi asosida o'quvchilarning texnik ko'nikmalarini fuqarolik madaniyati bilan uyg'unlashtiruvchi tarkibiy-funksional pedagogik model ishlab chiqildi. Metodologik asos sifatida esa kompetensiyaviy, integrativ va raqamli-texnologik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi tanlandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kasbiy ta'limni rivojlantirish muammolari R.X. Djuraev, N.A. Muslimov, D.O. Ximmataliev, O.A. Qo'ysinov kabi mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xorijiy pedagogikada G. Spenser, R.M. Ganye kabi tadqiqotchilar bilimlarni baholashning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa, V.I. Blinov, I.S. Sergeev kabi olimlar raqamli didaktika konsepsiyasini rivojlantirmoqda. Ushbu tadqiqotlar raqamli ta'limning alohida jihatlarini yoritishga xizmat qilsa-da, o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish jarayonini uni baholash mexanizmlari bilan uzviy bog'laydigan yaxlit nazariy modelning mavjud emasligi ilmiy bo'shliq sifatida namoyon bo'ladi. Aksariyat yondashuvlar yo texnologiyalarni joriy etishga, yoki baholashning alohida usullariga urg'u beradi, biroq bu ikki jarayonni yagona pedagogik tizim sifatida birlashtirmaydi.

Mavjud muammo – kasbiy ta'limda raqamli kompetensiyani shakllantirish va baholash bo'yicha tizimsiz yondashuvlarning mavjudligidir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu muammoni hal qilish uchun shakllantirish va baholash jarayonlarini birlashtiruvchi, aniq metodologik asoslarga ega bo'lgan tizimli yechim zarur. Maqolada aynan shunday yechim sifatida o'quvchining texnik ko'nikmalarini uning fuqarolik madaniyati bilan integratsiya qiluvchi tarkibiy-funksional model taklif etiladi. Ushbu yondashuvning yangiligi shundaki, u raqamli kompetensiyani faqat kasbiy mahorat sifatida emas, balki zamonaviy jamiyatning mas'uliyatli a'zosi sifatlarini o'zida mujassam etgan kompleks hodisa sifatida talqin qiladi.

Shunday qilib, maqolaning maqsadi – kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlarini nazariy jihatdan asoslash hamda ushbu jarayonni tizimli tashkil etishga imkon beruvchi tarkibiy-funksional modelni taqdim etishdan iborat.

Maqolaning nazariy negizini tashkil etuvchi asosiy tushunchalar "ta'limning raqamli transformatsiyasi" va "raqamli kompetensiya" hisoblanadi. Ta'limning raqamli transformatsiyasi – bu shunchaki ta'lim jarayoniga texnologiyalarni joriy etish emas, balki o'quv maqsadlari, metodlari, mazmuni va baholash tizimini tubdan o'zgartirish orqali yangi, shaxsga yo'naltirilgan va moslashuvchan ta'lim modellari yaratish jarayoni sifatida ta'riflandi. S.D. Karakozov ta'kidlaganidek, bu jarayon o'quvchini ta'limning passiv ob'ektidan uning faol sub'ektiga aylantiradi.

Raqamli kompetensiya esa Yevropa Ittifoqining DigComp konsepsiyasiga muvofiq, axborot va ma'lumotlar savodxonligi, kommunikatsiya va hamkorlik, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik hamda muammolarni hal qilish

¹ Prezidentning 2020-yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomasidan



kabi beshta asosiy yo'nalishni qamrab oluvchi bilim, ko'nikma va munosabatlar majmui sifatida tanqidiy tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tushunchalar asosida taklif etilayotgan modelning metodologik poydevori sifatida uchta o'zaro bog'liq nazariy yondashuv asoslandi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini nazariy bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki ularni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati sifatida belgilaydi. Integrativ yondashuv nazariy va amaliy bilimlar, shuningdek, turli fanlar o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash orqali yaxlit kasbiy tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli-texnologik yondashuv esa ta'lim jarayonini raqamli vositalar va muhit orqali tashkil etish, axborot oqimlarini boshqarish tamoyillarini belgilaydi.

Ushbu yondashuvlarning o'zaro aloqasi quyidagi jadvalda umumlashtirilgan holda taklif etildi.

1-jadval. Nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili.

Mezon	Kompetensiyaviy yondashuv	Integrativ yondashuv	Raqamli-texnologik yondashuv
Maqsadi	Amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish	Nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtirish	Ta'lim jarayonini raqamli vositalar bilan boyitish
Tamoyillari	Natijaga yo'naltirilganlik, amaliyotga yaqinlik	Fanlararo aloqa, nazariya va amaliyot birligi	Interaktivlik, moslashuvchanlik, vizuallashtirish
Asosiy metodlari	Loyiha ishi, keys-stadi, portfolio	Binar darslar, integral kurslar, kompleks topshiriqlar	Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, kompetensiyaviy, integrativ va raqamli-texnologik yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratib, integrativ yondashuv nazariya va amaliyot birligini ta'minlaydi. Raqamli-texnologik yondashuv esa ushbu jarayonlarni raqamli muhit va vositalar orqali boyitib, samaradorlikni oshiradi.

Metodologik jihatdan mazkur yondashuvlarni uyg'unlashtirish ta'lim mazmunini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish imkonini beradi. Xususan, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida faqatgina texnik ko'nikmalar emas, balki tanqidiy fikrlash, axborot bilan ishlash madaniyati va xavfsiz raqamli muhitda faoliyat ko'rsata olish kabi universal kompetensiyalar ham shakllantiriladi. Shu bois, taklif etilayotgan model raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda kompleks yondashuvni nazarda tutadi.

Unda talabalarining shaxsiy tajribasi va bilimlarini integratsiya qilish, fanlararo bog'liqlik orqali bilimlarni chuqurlashtirish hamda raqamli vositalar orqali individuallashtirilgan o'qitishni amalga oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanadi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonida an'anaviy va innovatsion metodlarni uyg'unlashtirish orqali zamonaviy kasbiy tayyorgarlikni ta'minlaydi.

Natijada bitiruvchilar nafaqat nazariy bilimlarga, balki ularni raqamli muhitda samarali qo'llay olishga ham tayyor bo'ladilar. Nazariy tahlillar asosida maqolada kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashga qaratilgan "Fuqarolik madaniyatida raqamli kompetensiyani shakllantirish va baholashning tarkibiy-funksional modeli" taklif etildi. Ushbu model beshta o'zaro bog'liq komponentdan iborat yaxlit tizim sifatida shakllantirildi.

1. Maqsadli komponent. Modelning asosiy maqsadi – raqamli texnologiyalardan samarali foydalana oladigan va ayni paytda yuksak fuqarolik madaniyatiga ega mutaxassisni tayyorlashdan iborat. Bu yerda raqamli kompetensiya kasbiy mahorat bilan birga ijtimoiy mas'uliyatni ham qamrab olishi aniqlandi. Faol fuqarolik madaniyati yoshlarning raqamli vositalardan foydalanib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni ob'ektiv tahlil qilish, destruktiv ta'sirlarga qarshi turish va fuqarolik jamiyatini barpo etishda faol ishtirok etish qobiliyati sifatida belgilandi.

2. Konseptual komponent. Modelning metodologik asosini tashkil etib, unga ijtimoiy-psixologik, axborot-kommunikativ va muhitli yondashuvlar kiritildi. Ushbu yondashuvlar raqamli avlodning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, virtual muhitda samarali muloqotni yo'lga qo'yish va rivojlantiruvchi raqamli ta'lim muhitini yaratish tamoyillarini belgilaydi.

3. Mazmunli-texnologik komponent. Bu komponentda o'quv mazmuni, pedagogik texnologiyalar va vositalar aniqlashtirildi. Xususan, "Raqamli jamiyatda yoshlar harakati" maxsus kursi, shuningdek, modul, loyiha, o'yin va interaktiv texnologiyalardan foydalanish tavsiya etildi. Tarbiyaviy faoliyat "Fuqarolik dunyoqarashi", "Fuqarolik faolligi" va "Virtual makonda axborot xavfsizligi" kabi tematik bloklar orqali amalga oshirilishi ko'zda tutildi.

4. Tashkiliy-pedagogik komponent. Modelni amaliyotga samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar belgilandi. Bularga o'quv dasturlariga tegishli mavzularni integratsiya qilish, raqamli



ta'lim muhitining tarbiyaviy salohiyatini oshirish va o'quvchilarning virtual makondagi faolligini qo'llab-quvvatlash kiradi.

5. Diagnostik-natijaviy komponent. Ushbu komponentda raqamli kompetensiyaning shakllanganlik darajasini baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va vositalari taqdim etildi. Baholash mezonlari sifatida motivatsion-qadriyat, kognitiv (affektiv) va faoliyatli jihatlar ajratildi. Shakllanganlik darajalari esa passiv-me'yoriy, funksional-pragmatik va faoliyatli-dinamik bosqichlarga bo'lindi. Baholash vositalari sifatida onlayn-anketalar, loyiha ishlarining reflektiv tahlili va raqamli portfoliodan foydalanish taklif qilindi.

Maqolada taqdim etilgan natijalar, xususan, tarkibiy-funksional model, xalqaro ta'lim siyosatidagi zamonaviy tendensiyalarga muvofiq keladi. Masalan, Yevropa Komissiyasining "Raqamli ta'lim bo'yicha harakatlar rejasi (2021–2027)"da yuqori samarali raqamli ta'lim ekotizimini yaratish va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish strategik ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Taklif etilgan modelning "Tashkiliy-pedagogik komponenti" aynan shunday ekotizimni yaratishga, "Mazmunli-texnologik" va "Diagnostik-natijaviy" komponentlari esa raqamli ko'nikmalarni shakllantirish va baholashga qaratilganligi bilan ushbu rejaning amaliy-pedagogik yechimi sifatida qaralishi mumkin.

V.I. Blinov va uning hammualliflarining raqamli didaktika konsepsiyasi ta'lim texnologiyalariga urg'u berishni taklif qiladi, bizning model esa texnologiyalarni nafaqat o'qitish vositasi, balki fuqarolik madaniyatini shakllantirish elementi sifatida ham talqin qilishi bilan ushbu qarashlarni to'ldiradi.

Modelning ilmiy ahamiyati shundaki, u kasbiy pedagogika nazariyasiga raqamli kompetensiyani shakllantirish va baholash jarayonlarini integratsiya qiluvchi tizimli yondashuvni taklif etadi. Ushbu model kompetensiyani shakllantirishning tarqoql usullarini yagona nazariy asosga birlashtiradi.

Amaliy ahamiyati esa kasbiy ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish, pedagoglar uchun innovatsion baholash vositalarini ishlab chiqish va ta'lim sifatini boshqarishda aniq metodologik qo'llanma bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi. Ushbu modeldan foydalanish kasbiy ta'lim bitiruvchilarining nafaqat mehnat bozorida raqobatbardoshligini, balki raqamli fuqaro sifatidagi mas'uliyatini ham oshirishni tasdiqlaydi. Shu bois, model tamoyillaridan kasbiy ta'lim standartlari va o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kasbiy ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholash murakkab, ko'p qirrali vazifa bo'lib, unga tizimli yondashuv talab etiladi. Taklif etilgan tarkibiy-funksional model ushbu muammoning nazariy yechimi sifatida quyidagi ilmiy takliflarni ishlab chiqishga asos bo'ladi:

1. Modelning diagnostik-natijaviy komponentiga asoslangan holda turli kasbiy yo'nalishlar uchun ixtisoslashtirilgan raqamli kompetensiyani baholash vositalari (standartlashtirilgan testlar, loyiha ishlari uchun rubrikalar) majmuasini ishlab chiqish va validatsiyadan o'tkazish.
2. Modelni amaliyotga tatbiq etishning o'quvchilarning kelgusidagi ishga joylashishi va ijtimoiy faolligiga uzoq muddatli ta'sirini o'rganish maqsadida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish.
3. Modelning mazmunli-texnologik komponentini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni va o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish.
4. Ushbu modelni ta'limning boshqa bosqichlari (oliy ta'lim, uzluksiz ta'lim) uchun moslashtirish imkoniyatlarini tadqiq etish va zarur o'zgartirishlarni nazariy jihatdan asoslash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги "Рақамли Ўзбекистон – 2030" стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6079-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.10.2020 й., 06/20/6079/1349-сон.
2. Блинов В.И., Сергеев И.С., Есенина Е.Ю. Педагогическая концепция цифрового профессионального образования и обучения: монография. – Москва: Дело РАНХиГС, 2020. – 112 с.
3. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш // Монография. – Т.: Фан, 2004. – 128 б.
4. Химматалиев Д.О. Касбий фаолиятга тайёргарликни диагностика қилишда педагогик ва техник билимлар интеграцияси // Монография. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 168 б.
5. Штофф В.А. Моделирование и философия. – Москва; Ленинград: Наука, 1966. – 300 с.
6. Communication from the Commission to the European Parliament, the Council, the European Economic and Social Committee and the Committee of the Regions on the Digital Education Action Plan 2021-2027 // European Commission. – 2020.
7. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens - With new examples of knowledge, skills and attitudes / Riina Vuorikari, Stefano Kluzer, Yves Punie. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>